

GOST ISO 9001:2015. (2015). *Sifat menejmenti tizimlari. Talablar.* Moskva: Standartinform.

KICHIK BIZNES VA MAHALLA INSTITUTLARI HAMKORLIGINING HUDUDIIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Murotov Nodir Xo‘jamqulovich

O‘zbekiston Mahallalari Uyushmasi Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes subyektlari va mahalla institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning shakllanishi, rivojlanish yo‘nalishlari va ularning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda mahalliy iqtisodiyotda kichik biznesning roli, hududiy resurslardan samarali foydalanish, hududiy infratuzilma va xizmatlar sohasi rivoji bilan bog‘liq jihatlar o‘rganiladi. Shuningdek, ijtimoiy innovatsiyalar asosida mahalla va kichik biznes integratsiyasi natijasida yuzaga keluvchi sinergik ta’sirlar ham ko‘rib chiqiladi. Maqola mahalla va kichik biznesning o‘zaro aloqalarini mustahkamlash orqali barqaror hududiy rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, mahalla institutlari, hududiy iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik, tadbirkorlikni rag‘batlantirish, aholi bandligi, mahalla infratuzilmasi.

Kirish


Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va mahalliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes va mahalla institutlari o‘rtasidagi samarali hamkorlik zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Kichik biznes subyektlari bevosita hududiy iqtisodiyotning faollashtiruvchi kuchi bo‘lib, u aholining bandligini oshirish, xizmatlar sohasini kengaytirish va ijtimoiy muammolarni joyida hal etishda muhim rol o‘ynaydi.

Barqarorlikka erishish nafaqat makroiqtisodiy siyosatning, balki mahalliy boshqaruv va mahalliy resurslar samaradorligining ham o‘zaro uyg‘unlashuviga bevosita bog‘liqdir. Aynan shu nuqtada kichik biznes va mahalla institutlari o‘rtasidagi tizimli aloqalar ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Ularning o‘zaro hamkorligi ikki asosiy shakl — kooperatsiya va ijtimoiy sheriklik hamda axborot almashinuvi orqali ifodalanadi va har biri barqarorlik mezonlariga har xil yo‘llar bilan ta’sir ko‘rsatadi.

Kooperativ faoliyat doirasida mahalla hududida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar o‘zaro ko‘maklashib, turli xizmat yoki mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha jamoaviy loyihalarni shakllantiradilar. Mahalla va kichik biznes o‘rtasidagi kooperativ aloqalar aynan shu ijtimoiy kapital orqali resurslarning samarali muvofiqlashuviga olib keladi, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning nisbiy holatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy sheriklik mexanizmida iqtisodiy sub’yektlar (kichik biznes) va notijorat, jamoatchilik subyektlari (mahalla) o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv asosidagi hamkorlik, ya’ni “qisqa ierarxiya” modeli orqali boshqaruvning markazdan quyi bosqichlarga o‘tishi nazarda tutiladi. Bu yondashuvda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik resurslar va vakolatlarning mahalliy darajada oqilona taqsimlanishi orqali erishiladi. Axborot almashinuvi esa subyektlar o‘rtasidagi ishonch, tezkorlik va shaffoflik darajasi qaror qabul qilish sifatini belgilaydi. Mahalla va kichik biznes o‘rtasida axborot oqimining tizimlashtirilgan shaklda kechishi resurslar samaradorligi, ehtiyojlarning real aniqligi va ijtimoiy-iqtisodiy risklarni oldindan aniqlash imkonini yaratadi.

Kichik biznes va mahalla o'rtasidagi aloqalarning har bir shakli — kooperatsion, sheriklik yoki axborot — ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni turli daraja va yo'nalishlarda mustahkamlovchi kuchli vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ularning uyg'unligi orqali mahalliy iqtisodiyotning ichki salohiyati to'liq ishga solinadi, barqaror mehnat bozori shakllanadi va fuqarolar ehtiyojlariga mos infratuzilma tizimi rivojlanadi(1-rasm).

Kichik biznes va mahalla institutlari o'rtasidagi kooperatsiya, ijtimoiy sheriklik va axborot almashinuvi shaklidagi aloqalar faqat tashabbuskor hamkorlik darajasida qolmasdan, ularni amalda rag'batlantirish va tizimlashtirishni talab etadi, ya'ni mahalla institutlari orqali kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlari shakllanadi. Ular o'z hududidagi aholining iqtisodiy faollik salohiyatini tahlil qilish, mavjud infratuzilma imkoniyatlarini baholash, bo'sh turgan obyektlar va yer uchastkalarini aniqlash orqali kichik biznes sub'yektlariga aniq yo'naltirilgan tavsiyalar berish imkoniyatiga ega.



1-rasm. Kichik biznes va mahalla o'rtasidagi kommunikativ shakllar²


Mahalla tomonidan ehtiyojmand, band bo'lmagan yoki kasbga ega ayollar, yoshlarga tegishli tavsiyalar asosida kredit va grant dasturlariga yo'naltirish mahalla biznes tashabbuskorlariga hukumat yoki xalqaro dasturlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu esa iqtisodiy inklyuziya orqali ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mahalla darajasida faoliyat yuritayotgan biznes

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

sub'yektlari aholining bevosita ijtimoiy munosabatlari maydonida joylashgani bois, ularning faoliyati ko'p holatda mahalla obro'-e'tibori, ijtimoiy me'yorlarga mosligi va jamoaning ishonch darajasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Bu jihat kichik biznesga nisbatan jamoaviy "ijtimoiy talab" va "ijtimoiy ishonch" mezonlari asosida barqaror harakatlanish muhitini shakllantiradi.

Kichik biznes subyektlari va mahalla institutlari o'rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik zamonaviy boshqaruv paradigmaları, innovatsion yondashuvlar va jamiyat ichki ehtiyojlariga tezkor javob qaytarish qobiliyati bilan ahamiyat kasb etadi. Xalqaro miqyosda keng qo'llanilayotgan va raqamli iqtisodiyot hamda fuqarolik jamiyati o'rtasidagi bog'liqlikni anglashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy biznes modellar (B2G, G2B, B2B, B2C, C2B, C2C, G2C) asosida tahlil olib borish zarurati yuzaga chiqadi.

Zamonaviy biznes modellarini mahalla kontekstida moslashtirish va ularga ijtimoiy institutsional mazmun yuklash orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishning yangi vektorini shakllantirish mumkin. Shu asosda, har bir modelda mahalla institutining vositachilik, muvofiqlashtiruvchilik va kuzatuvchi funksiyalari o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Eng muhimi, bu modellar mahalla institutining rolini passiv ijtimoiy tuzilmadan faol ishtirokchi va vositachiga aylantiradi(2-rasm).



2-rasm. Biznes modellar konsepsiyasida mahalla institutining roli³

Kichik biznes va mahalla institutlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qilishda ularning dinamik tabiati, funksional murakkabligi hamda kontekstga xosligidan kelib chiqib, zamonaviy interaktiv biznes modellarini qo'llash zarurati tug'iladi. Mahalla institutlari bevosita mikrohudud darajasida faoliyat olib borganligi sababli, ular real ehtiyojlar va mavjud resurslar o'rtasidagi ziddiyatlarni aniq ko'ra oladi va bu muammolarning yechimini tezroq shakllantiradi.

B2G modeli tadbirkorlarning davlat bilan hamkorlikda infratuzilma, buyurtma va ijtimoiy xizmatlar orqali moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mahalla esa bu jarayonda lokal salohiyat va ehtiyojlarni aniqlovchi hamda bu ma'lumotlarni yuqori tizimlarga integratsiyalovchi vosita sifatida ishtirok etadi. G2B modeli davlat tomonidan kichik biznes subyektlariga

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

ko'rsatiladigan normativ va moliyaviy qulayliklarni ifodalaydi. Mahalla institutlari ushbu yengilliklar haqida axborot uzatuvchi va yangi tadbirkorlarni rasmiylashtirishda ko'maklashuvchi muhim ijtimoiy platformaga aylanadi.

B2C va C2B modellarida iqtisodiy almashuv mahalliy iste'mol va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy aloqani bildiradi. Mahalla, bir tomondan, aholi ehtiyojlarini biznesga yetkazuvchi, ikkinchi tomondan esa, fuqarolarning xizmat ko'rsatish salohiyatini iqtisodiy muomalaga yo'naltiruvchi nuqta sifatida qatnashadi.

C2C modeli aholining o'zaro tovar va xizmatlar almashinuviga asoslangan mikroiqtisodiy muhitni shakllantiradi. Mahalla bunday faoliyatni institutlashtirib, ishonch muhitini mustahkamlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy faollikni hududiy darajada ko'lamlashtirishga xizmat qiladi. G2C modeli orqali davlat xizmatlari aholi qatlamlariga yanada yaqinlashtiriladi. Bu jarayonda mahalla instituti fuqarolarning davlat bilan bevosita va teng huquqli munosabatini soddalashtiruvchi vositachiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov, S. Q. (2021). *Mahalla institutini rivojlantirishda iqtisodiy mexanizmlarning tutgan o'rnini*. Toshkent: Iqtisodiyot.
2. Hasanov, B. R. (2022). *Hududiy rivojlanishda kichik biznes va mahalla institutlari integratsiyasi*. O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 6(3), 45–52.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. (2020). *Mahalla institutini rivojlantirishning dolzarb masalalari*. Toshkent: Akademnashr.
4. World Bank. (2020). *Creating Markets in Uzbekistan: Country Private Sector Diagnostic*. Retrieved from <https://www.worldbank.org/>
5. De Soto, H. (2000). *The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else*. New York: Basic Books.
6. UNDP Uzbekistan. (2021). *Mahalla-based development in Uzbekistan: Opportunities and perspectives*. Retrieved from <https://www.uz.undp.org/>
7. Mahmudov, N. J., & Ergashev, Q. X. (2019). *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyoti*. Toshkent: Fan va texnologiya.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). *Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va mahalla bilan integratsiyalashuv dasturi to'g'risida qarori*, №427.
9. OECD. (2018). *Enhancing SME productivity: Policy highlights on small and medium-sized enterprises*. Paris: OECD Publishing.